

**HUQUQBUZARLIKLER PROFILAKTIKASIDA BEVOSITA AMALGA
OSHIRUVCHI VA ISHTIROK ETUVCHI SUBYEKTLARNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI VA FAOLIYAT YO'NALISHLARI**

Hakimov Hazratbek Hamza o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

3-o'quv kursi 317-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi subyektlar hamda unda ishtirok etuvchi subyektlar tushunchasi, tasnifi, ularning faoliyat yo'nalishlari hamda faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va bu sohadagi muammollar tahlili yoritib o'tilgan.

Abstract: In this article, the concept and classification of the entities that directly implement the prevention of crimes and the entities that participate in it, their areas of activity and specific features of their activities, and the analysis of problems in this area are highlighted.

Kalit so'zlar: Huquqbazarliklar profilaktikasi, subyektlar, bevosita amalga oshirish, ishtirok etuvchi subyektlar, sudlar, hamkorlik.

Key words: Crime prevention, entities, direct implementation, participating entities, courts, cooperation.

Huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar tizimi:

Huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar tizimiga quyidagilar kiradi:

ichki ishlar organlari;

prokuratura organlari;

Davlat xavfsizlik xizmati organlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati organlari;

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari;

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;

adliya organlari;

davlat bojxona xizmati organlari;

davlat soliq xizmati organlari;

mehnat organlari;

ta'limdi davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari;

davlat sog'lijni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'lijni saqlash muassasalari;

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari;

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo'linmalari.

Date: 17th November-2024

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilmagan organlar va muassasalar huquqbazarliklar profilaktikasida qonunchilikda belgilangan tartibda ishtirok etadi.

Ichki ishlar organlari:

huquqbazarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

huquqbazarliklar profilaktikasiga doir dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

mamlakatdagi, ayrim mintaqalardagi, tumanlar va shaharlardagi kriminogen vaziyatni o'rGANADI, mavjud kuchlar va vositalardan huquqbazarliklarning oldini olish hamda ularni bartaraf etishda foydalanilishi samaradorligi tahlilini amalga oshiradi;

huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, shu jumladan huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi, bartaraf etadi;

huquqbazarliklarning, ularni sodir etgan shaxslar va huquqbazarliklardan jabrlanuvchilarning hisobini yuritadi, mazkur ma'lumotlarning tahlilini amalga oshiradi;

ushbu Qonunning 35-moddasida nazarda tutilgan shaxslarni profilaktik hisobga olishni amalga oshiradi;

faoliyati taqiqlangan tashkilotlarga va diniy-ekstremistik yo'nalishdagi guruhlarga aloqador bo'lgan shaxslarni aniqlaydi, ularga nisbatan chora-tadbirlar ko'radi;

pasport-viza rejimiga, fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan fuqaroviylar va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini saqlash qoidalari hamda tartibiga rivoja qilinishi ustidan nazoratni ta'minlaydi;

jinoyatlarni fosh etishda va tergovga, sudga kelishdan bo'yin tovlayotgan shaxslar hamda bedarak yo'qolgan fuqarolar qidiruvida ishtirok etadi;

ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini ko'radi;

huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

Ichki ishlar organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning huquqbazarliklar profilaktikasidagi ishtiroki

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari:

huquqbazarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

tegishli hududda jamoat tartibini ta'minlashda, shu jumladan fuqarolarning kelishi va ketishi hisobga olinishini tashkil etishda, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasi hamda ularning huquqlarini himoya qilish bo'yicha ishlarda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko'maklashadi;

Date: 17th November-2024

ro‘yxatdan o‘tkazilmagan diniy tashkilotlar faoliyatiga chek qo‘yish, fuqarolarning diniy e’tiqod erkinligiga bo‘lgan huquqlariga rioxay etilishini ta’minlash, diniy qarashlarni majburlab singdirishga yo‘l qo‘ymaslik chora-tadbirlarini ko‘radi, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonunchilikka rioxay etilishi bilan bog‘liq boshqa masalalarni ko‘rib chiqadi;

ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha yordamchilari bilan birgalikda “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi a’zolari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;

yarashtirish komissiyalari va boshqa komissiyalarni tuzadi;

huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda muassasalar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarga ko‘maklashish hamda zarur yordamni ko‘rsatish yo‘li bilan huquqbazarliklar profilaktikasida ishtirok etishi mumkin.

Demak, huquqbazarliklar profilaktikasida ishtirok etuvchi subyektlar quyidagilardir:

1. Sudlar;
2. Fuqarolar;
3. Fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari;
4. Mahalliy davlat hokimiyati organlari;
5. Nodavlat notijorat tashkilotlar;
6. Ommaviy axborot vositalari;
7. Jamoat birlashmalari va tashkilotlari.